

ТО‘ХТАЙЕВ Nasrulloh

Imom Termiziy o‘rta maxsus islom ta’lim

muassasasi o‘qituvchisi,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

tayanch doktoranti

E-mail: nasrulloh.tuxtayev@mail.ru

Orcid: 0002-0006-89100-1411

HANAFIY MAZHABIDA URF- ODATLARDAN HUKM OLIISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

ТЕОРЕТИКО- МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫНЕСЕНИЯ ПРАВОВЫХ РЕШЕНИЙ НА ОСНОВЕ ОБЫЧАЕВ В ХАНАФИТСКОМ МАЗХАБЕ

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DERIVING LEGAL RULINGS FROM CUSTOMS IN THE HANAFI SCHOOL OF THOUGHT

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom A‘zam tomonidan asos solingan hanafiy mazhabida urf-odatlardan hukm olishning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlarini tahlil qilingan. Urfning fiqh ilmidagi ahamiyati, uning Qur‘oni karim, Sunnat va qiyos bilan uzviy aloqalari, fiqhiy hukmlar qabul qilishdagi roli misollar asosida ochib berilgan. Shuningdek, hanafiy fiqhi olimlarining urfga bergan ta‘riflari, shartlari, uning qo‘llanilishiga oid ko‘rsatmalari, zamonaviy ijtimoiy masalalar borasida hukm chiqarishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Imom A‘zam, Hanafiylik mazhabi, urf, hukm fiqh, shariat manbalari, usul al-fiqh, qiyos, ijtimoiy-madaniy hayot, zamonaviy ijtimoiy masalalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические и методологические аспекты использования обычаев в вынесении решений в ханафитском мазхабе, основанном Имамом Аъзамом. Анализируется значение урфа в науке фикха, его тесная взаимосвязь с Кораном,

Сунной и киясом, а также роль в принятии правовых решений на основе примеров. Кроме того, показаны определения, условия и указания, данные ханафитскими учёными относительно урфа, а также его место в решении современных социальных вопросов.

Ключевые слова: Имам Аъзам, ханафитский мазхаб, урф, фикх, источники шариата, усуль аль-фикх, кияс, социально-культурная жизнь, современные социальные вопросы.

Annotation. This article analyzes the scientific, theoretical, and methodological aspects of deriving legal rulings from customs within the Hanafi school founded by Imam A‘zam. It explores the significance of ‘urf in Islamic jurisprudence, its close connection with the Qur‘an, the Sunnah, and qiyas, as well as its role in issuing legal judgments through practical examples. The paper also discusses the definitions, conditions, and guidelines provided by Hanafi jurists regarding ‘urf, and highlights its relevance in addressing contemporary social issues.

Keywords: Imam A‘zam, Hanafi school, urf (custom), fiqh, sources of Sharia, usul al-fiqh, qiyas, socio-cultural life, contemporary social issues.

KIRISH

Islom huquqi rivojida Imom A‘zam Abu Hanifa asos solgan hanafiy mazhabi alohida o‘rin tutadi. Bu mazhabning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shariat hukmlarini chiqarishda urf-odatlarga muhim manba sifatida e‘tibor berishdir. Zero, urf kishilarning kundalik hayotidagi amaliy ehtiyojlarini qondiruvchi, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omildir. Hanafiy ulamolari urfni Qur‘oni Karim, sunnat va qiyos bilan chambarchas bog‘lab, hukm chiqarishda undan foydalanganlar. Bu mazhabning hayotiylikligini, moslashuvchanligini va jamiyat hayotiga mosligini ta‘minladi. Bundan tashqari, urfning huquqiy manba sifatidagi roli nafaqat tarixiy jarayonlar, balki hozirgi zamon ijtimoiy masalalarida ham dolzarbligicha qolmoqda.

ASOSIY QISM

Hanafiy mazhabi fiqhida urfning ahamiyati bir necha jihatdan izohlanadi. Birinchidan, qonunchilikda amaliylikni ta‘minlash: Urf

jamoatchilik hayotidagi real holatlarni aks ettiradi, shu sababli u fiqhiy hukmlarda amaliyotga juda yaqin tushuncha hisoblanadi. Ikkinchidan, qonunni yengillashtirish: Urf qonunlarni jamoat hayotiga moslashtirish va ularni qattiq qoidalaridan ozod etishda muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish: Urf asosidagi hukmlar ijtimoiy tartib va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Hanafiy mazhabida urfdan hukm olishning metodologiyasi bir qator mezonlar va shartlarga asoslanadi. Xususan, urf shariatga zid bo'lmashligi shart. Agar urf shariatga qarshi kelsa, u e'tiborga olinmaydi. Urf jamoatchilik tomonidan keng qo'llanilgan va muqarrar bo'lishi kerak. Ya'ni, urf yagona bir shaxs yoki jamoa tomonidan emas, balki keng jamoatchilik tomonidan qabul qilingan bo'lishi lozim. Shuningdek, urf shariat hukmlari bilan to'qnashmasligi kerak. Urf va shariat o'rtasidagi ziddiyatda har doim shariat hukmlari ustun turadi. Imam Suyutiy bu borada shunday deydi: "Agar urf ommaviy va doimiy bo'lsa, u bilan shariat hukmi tayinlanadi. Agar shaxsiy yoki juz'iy bo'lsa, unga amal qilinmaydi". [11: 307].

Agar urf ommaviy bo'lmasa, u holda u shariatda asos bo'la olmaydi. Chunki bunday holatda adolat buziladi, shaxsiy yoki mahalliy urfga amal qilish boshqalarga noqulaylik keltiradi. Bu kabi holatda ijtimoiy nizolar kelib chiqadi, har kim urfni o'zicha tushunishni boshlaydi. Qonunchilikda barqarorlik bo'lmaydi, fiqhiy hukmlar har joyda har xil bo'lib ketadi.

Hanafiy mazhabida urfning ommaviyligiga asoslangan amaliy misollarga quyidagilarni keltirish mumkin. Jumladan, mahr masalasida "mahri misl" tushunchasini olaylik. Agar nikohda mahr miqdori aniq aytilmasa, urfga ko'ra shu hududdagi ayollar olgan mahr miqdoriga qaraladi. Bu urf ommaviy bo'lgani uchun hukmga asos bo'la oladi [2: 76].

Savdo-sotiqda jarayonlaridagi odatiy shartlar masalasida ham ommaviy urf asosida hukm chiqarish borasida bir qancha misollar keltirish mumkin. Masalan, bozorda qopdagi guruchni ko'rib, miqdorini so'ramay turib olgan xaridorlar urfiy ravishda qabul qilingan o'lovga ko'ra sotib olgan deb hisoblanadi. Bu ham urfning keng tarqalganligiga bog'liq holat hisoblanadi.

Ijara shartnomasida muayyan shartlar aytilmasa, jamiyatdagi qabul qilingan odat (masalan, har oy yakunida to'lash) asosida hukm chiqariladi. Bu urf umumiy hisoblanadi.

Urfning ommaviyligiga oid bir qancha fiqhiy qoidalar mavjud. Xususan, ma'lum bir urf keng tarqalgan bo'lsa, u nozil bo'lgan nass (dalil) kabi qabul qilinadi. Ya'ni, agar urf juda keng qabul qilingan bo'lsa, u hukm manbasiga aylanadi. Urf shar'iy dalilga xilof kelmagunicha, shariat unga amal qiladi. Ya'ni urf asosida hukm chiqarishda faqat umumiylikning o'zi yetarli emas, u shar'iy mezonlarga muvofiq ham bo'lishi shart [1: 92].

Hanafiy mazhabi fiqhiy usullarda jamiyatdagi urf va odatlarning ahamiyatini chuqur anglab, uni huquqiy hukm chiqarishda muhim manbalardan biri sifatida qabul qilgan. Ammo buning uchun urf muayyan shartlarga javob berishi lozim. Ulardan eng asosiylaridan biri – urfning ommaviy va keng tarqalgan bo'lishi hisoblanadi. Chunki faqat umumiy qabul qilingan urfgina jamiyatda barqarorlik, adolat va hayotiylikni ta'minlay oladi. Urfning bu xususiyati shariatning asosiy maqsadlari – inson manfaati, adolat va osoyishtalikni ta'minlashga to'liq mos keladi.

Hanafiy mazhabi asoschilari urfni shirkat hayotidagi amaliy ehtiyojlarni qondiruvchi manba sifatida qarashgan. Urfni qiyosga qo'shimcha sifatida qabul qilish uning jamiyatdagi barqaror va keng tarqalgan holatiga bog'liq. Masalan, tijorat, nikoh, mahr, ijara kabi sohalarda urfga murojaat qilish keng tarqalgan.

Hanafiy faqihlar qiyos orqali chiqarilgan hukm urfga xilof kelsa, ko'p hollarda urfga amal qilishni afzal ko'rganlar. Bu ularning amaliy hayotga moslashuvchanligi va huquqiy ehtiyojlarga e'tiborini namoyon etadi.

Molikiy mazhabida urfning amal al-madina sifatidagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Imom Molikning ta'limotiga ko'ra, Madina ahli amali – Rasululloh (s.a.v.) davridan uzluksiz tarzda saqlanib kelayotgan amaliy meros hisoblanadi. Shu boisdan ularning urfi mustahkam manba sifatida qabul qilingan. Molikiy mazhabi amaliy urfni faqat mahalliy emas, balki umumiy islomiy meros sifatida qabul qilgan. Bu esa ularning huquqiy qarashlarida jamoaviylik va ijtimoiy manfaat ustuvorligini ko'rsatadi [5: 201].

Shofe'iy mazhabida asosiy metodologik tamoyil matn ustuvorligi hisoblanadi. Imom Shofe'iyning nazariyasida Qur'on va Sunnat barcha huquqiy manbalardan yuqori qo'yilgan. Shuning uchun urf faqatgina matn bilan ziddiyatga kirishmagan hollarda qabul qilinadi. Shofe'iy mazhabida urf matn bilan muvofiq kelsa, qo'llaniladi, urf ijmo bilan quvvatlansa, huquqiy kuchga ega bo'lishi mumkin. Urf mustaqil manba sifatida emas, balki matnning izohlovchisi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun Shofe'iy mazhabida urf cheklangan holda ishlatiladi, lekin uning ahamiyati butunlay inkor etilmaydi.

Hanbaliy mazhabi metodologiyasida matnga qattiq bog'lanish asosiy o'rin tutadi. Urfning qabul qilinishi shartli va cheklangan holda amalga oshiriladi. Hanbaliylarda urf faqat matnning umumiy qoidalariga zid bo'lmagan taqdirda qabul qilinadi, urfni huquqiy manba sifatida qo'llash ko'proq amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq. Hanbaliy faqihlarning fikriga ko'ra, urf hech qachon matn o'rnini bosa olmaydi. Hanbaliy mazhabi qat'iy matnga suyanganligi bilan hanafiy va molikiylarning moslashuvchan usulidan farq qiladi.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, hanafiy faqihlar amaliy ehtiyoj va urfning umumiyligiga katta ahamiyat beradi. Molikiylar amal al-madina (madina ahli urfi)ni muqaddam qo'yadi. Shofe'iy olimlar matn ustuvorligini ta'minlaydi, urf asosida hukm chiqarishni esa cheklaydi. Hanbaliy mazhabi esa matnga qattiq bog'lanadi va urfni cheklangan holda qabul qiladi. Bu farqlar faqat nazariy jihatdan emas, balki amalda ham turli hududlarda turlicha huquqiy an'analarning shakllanishiga olib kelgan.

Hozirgi davrda urf faqat mazhabiy manba sifatida emas, balki huquqiy, sotsiologik va antropologik tadqiqotlar orqali ham o'rganilmoqda. Sud jarayonlarida urfni aniqlash uchun antropologik tadqiqotlardan foydalanilmoqda. Sotsiologik ma'lumotlar orqali jamiyatda qaysi urf ustuvor ekani o'rganilmoqda. Huquqiy ekspertiza orqali esa urf obyektiv dalil sifatida baholanadi. Shu yo'l bilan urf zamonaviy huquqiy tizimlarda ham ahamiyatli o'rin egallab, mazhablardan tashqari amaliyotda qo'llaniladi. Zamonaviy huquqiy muhokamalarda urf faqat mazhablar orqali emas, balki huquqiy va ijtimoiy tadqiqotlar asosida ham

baholanmoqda. Bu esa uning ahamiyatini yanada oshirib, huquqiy hayotda zamonaviy qiymat kasb etishiga xizmat qilmoqda [8: 19].

Urfning aqliy va mantiqiy jihatdan asosli bo'lishi urfning «aqliy va mantiqiy jihatdan qabul qilinadigan» bo'lishi uchun tahlil qilinishi lozim bo'lgan mezonlarni bosqichma-bosqich ko'rsatadi. Mezonlar tizimini quyidagi tartibda keltirish mumkin:

Ma'mullik va keng tarqalganlik (shumul) – urf faqat bir shaxs yoki kichik guruhga xos emas, jamiyatning katta qismi tomonidan qabul qilingan bo'lishi kerak;

Davomiylik (istimror) – urf muvaqqat yoki bir marotabali holat emas, muayyan muddat – odatda yillar yoki avlodlar davomida shakllangan bo'lishi lozim;

Mantiqiy moslik – urf aql o'lchovlariga to'g'ri kelishi, ziddiyatli bo'lmashligi kerak;

Adolat va tenglik (insof) – urf bir guruhni doimiy zararga uchratmasligi, ijtimoiy adolatga xizmat qilishi lozim;

Foydali bo'lish – urf jamiyatning umumiy manfaatini himoya qilishi yoki kamroq zarar keltirishi zarur;

Shariatga zid emasligi – urfning birinchi va hal qiluvchi ko'rsatkichlaridan biri – Qur'on va Sunnatga ochiqcha zid bo'lmashligi kerak [9: 136].

XULOSA

Hanafiy mazhabida urf-odatlardan hukm olishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Islom huquqshunosligining muhim jihatlaridan biri uning turli metodologik usullar asosida qaror topishidir. Urf-odatlardan hukm chiqarishda ham ulamolar turli metodlarga tayanadilar. Avvalo, Qur'on va Sunnat ustuvor manba hisoblanadi, shu bilan birga ijmo va qiyos ham muhim o'rin tutgan. Biroq amaliy hayotda uchraydigan masalalarni hal etishda urfning roli katta bo'lgan va uning huquqiy qiymati metodologik yondashuv orqali asoslab berilgan.

Ikkinchidan, Hanafiy mazhabida “istisloh” (manfaatni ko'zlash), “istihson” (yaxshilikka yaqin bo'lganni tanlash) va “urf” kabi metodlar qo'llanilgan. Ulamolar fikricha, urf umumiy

manfaat va adolatga mos kelsa, hukm chiqarishda asos sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa fiqhning hayotiy va amaliy jihatlarini mustahkamlagan.

Molikiy mazhabida esa “masolih mursala” usuli orqali urf-odatlar huquqiy kuchga ega bo‘lgan. Shofeiyy va Hanbaliy mazhablari urfni mustaqil metod sifatida qabul qilmagan bo‘lsa-da, ular ham ba’zi hollarda urfni dalil sifatida ko‘rganlar.

Metodologik farqlardan ko‘rinadiki, urfni qabul qilishda har bir mazhab o‘z uslubiga amal qilgan: hanafiylar – istihson va istisloh orqali, molikiylar – masolih mursala orqali, shofeiyy va hanbaliylar esa ehtiyotkorona yondashuv orqali.

Uchinchidan, zamonaviy islom huquqshunosligida ham urfni metodologik jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki islomiy huquqning asosiy maqsadlari – inson manfaati, adolat va osoyishtalikni ta’minlashdir. Urf ana shu maqsadlarga xizmat qilgandagina huquqiy jihatdan kuchli manba sifatida qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, urf-odatlarining huquqiy asos sifatida e’tirof etilishi turli metodlar orqali amalga oshirilgan. Bu esa shariatning zamon va makon talablariga uyg‘unligini, uning hayotiy va universal tizim ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulkarim Zaydon. Al-Vajiz fi usul al-fiqh. – Bag‘dod: Maktabatul ma’orif, 1976. – 713 b.
2. Bazdaviy Faxrul Islom. Usul al-Bazdaviy. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 2001. – 618 b.
3. Ibn Obidin Muhammad Amin. Radd al-Muxtor ala Durr al-Muxtor. – Damashq: Dorul fikr, 1992. – 419 b.
4. Ibn Qudoma Abdulloh. Al-Mug‘ni. 15 jild. – Bayrut: Dorul fikr, 1984. II jild. – 532 b.
5. Imom Molik ibn Anas. Al-Muvatto. – Damashq: Dorul fikr, 1985. – 816 b.
6. Jassos Abu Bakr ar-Roziy. Usul al-Jassos. – Qohira: Matbaa al-Halabiy, 1911. – 419 b.
7. Kosoniy Alouddin. Badoye as-Sanoiy fi tartib ash-Sharoiy. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 1986. – 458 b.
8. Marg‘inoniy Burhonuddin. Al-Hidoya fi sharh Bidoyat al-Mubtadiy. – Qohira: Dorul kutub al-islomiyya, 1906. – 786 b.
9. Qarofiy Shihobuddin. Al-Furuq. – Qohira: Dor as-Salom, 2001. – 698 b.
10. Saraxsiy Muhammad ibn Ahmad. Al-Mabsut. 30 jild. – Bayrut: Dorul ma’rifa, 1993. IV jild. – 528 b.
11. Suyutiy Jaloliddin. Al-Ashboh va-n-Nazoir. – Qohira: Dorul kutub al-Hadisiyya, 1965. – 403 b.